

(Turkiy "Devon"dan namunalar)

Qul Ubaydiy Xususida

Tarix shuni ko'rsatadiki, xonlar bilan xonlarning farqi bor, beklar bilan beklarning, amirlar bilan amirlarning. Birlari o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun kurashgan va yashagan bo'lsalar, ikkinchilari ko'p vaqt o'z turmushini, boylik orttirishni, bor narsalarni ham buzishni, yo'q qilishni o'ylagan, yaratuvchilik g'oyasidan uzoq bo'lgan.

Buxoro hokimi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton esa bir tomondan shayboniylar sulolasining yirik namoyadalaridan biri bo'lishi, hokimiyat uchun bo'lgan jangu jadallarda faol qatnashishi bilan birga o'z davri madaniyatining katta arbobi, XVI asr o'zbek adabiyotining yirik vakili ham bo'lgan, o'z hayotining biron kunini she'rsiz, she'r mutolaasisiz kechirmagan, o'zidan keyingi avlodlarga o'zbek, fors va arab tillarida bir necha devon qoldirgan.

Urta Osiyo xalqlari siyosiy tarixida Ubaydulloxonning eng katta xizmatlaridan biri shundaki, u Ismoil Safaviy boshliq eroniylarning, tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy tili bilan aytganda, "qizil boshlar"ning hujumlarini daf' etib, Movarounnahrni ularning istibdodidan saqlab qoldi. Shayboniixonning fojiali o'limidan keyin shayboniylar orasida ma'lum darajada ma'naviy parokandalik yuz berdi. Ubaydulloxonning harbiy mahorati va jasorati, uning davlat arbobi sifatida qattiqqo'lligi tufayli safaviylar qo'shini orqaga chekindi. Ularning O'rta Osiyo shaharlarini qirg'in qilishi, talashi to'xtatildi. Ubaydulloxon Shayboniy hukmdorlaridan Ko'chkinchixon (1510-1530), uning o'g'li Abusaid (1530-1583) hukmronligi davrida ularning noibi, 1533-1539 yillarda esa xon ko'tarilib, mamlakatni boshqardi. Hofiz Tanish Buxoriy o'zining "Abdullanoma" degan asarida yozishicha: "Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab yashnadi". (Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma T., 1966, 110-bet). Shu davrda uning mablag'iga mashhur Mir Arab madrasasi qurildi. Ubaydulloxon 1539 yili vafot etgan bo'lib, uning xoki shu madrasa xonalaridan biriga qo'yilgan.

Ubaydulloxon ham o'z davri hukmdorlaridan Husayn Boyqaro, Shayboniixon, Zahriddin Muhammad Bobir kabi muttasil she'riy ijod bilan shugullanib, she'rlariga "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy" taxalluslarini qo'llar edi. Ubaydiy turkiy, forsiy va arabiy tildagi she'rlaridan uch devon tuzib, uni kitob holida bir muqova ichiga joylashtirgan. Bu devonning yagona qo'lyozma nusxasi 1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan, kotib uni "Kulliyot" deb atagan. Bu qo'lyozma O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida inventar № 8931 bilan saqlanmoqda.

Ubaydiyning o'zbek tilidagi devonida 310 dan ortiq g'azal, 485 dan ziyod ruboiy, 21 qit'a, 13 tuyuq va boshqa she'r turlari - notma, muammo, masnaviy, hikmat, tarjebandlardan namunalar mavjud. Shoirning boy adabiy merosi hali maxsus o'rganilmagan.

Ubaydiyning o'zbek tilidagi devonini dastlabki o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu devon bizgacha to'liq yetib kelmagan. Unda qofiyasi "alif"ga oid 44, "qof"ga oid 13, "ng"ga oid 26, "l"ga oid 9, "m"ga oid 15, "n"ga oid 58, "yoy"ga oid 85 g'azal mavjud bo'lgani xolda "b", "p", "s" (sin) "h", "x", "j", "d", "r", "sot", "zot", "itqi", "izgi" kabi harflarga oid g'azallar yo'q. Bu shuni ko'rsatadiki, devonning kattagina qismi yo'qolgan.

Shunga qaramay, mazkur devon Ubaydiyning katta she'riy iste'dodidan darak beradi. Uning g'azal va ruboiylari, qit'a va tuyuqlari o'zbek she'riyatining katta yutuqlari bo'lib, ular bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga, nozik uslub ko'rinishlariga ega.

Ubaydiy she'riyatida o'ziga xoslikka, originallikka intilish ustun. Shoir she'riy uslubida soddalikka moyillik, o'z fikrini mumkin qadar xalq tili bilan bayon etishga urinish muhim ijobiy holdir.

Ubaydiy hukmron sulola vakili bo'lsa ham, uning hayot yo'lini silliq, faqat zafarlardan iborat deb tasavvur etish to'g'ri emas. G'azallariping birida:

Bir lahza ko'ngul o'lmadi beg'am zamonadin:

To'ydi zamonamendinu men ham zamonadin,-

deb tortgan nolasining o'ziyeq zamonasi dardu g'ami, nizoyu fitnasidan ozor topganligini ko'rsatib turibdi.

Shuning uchun biz Ubaydiyning o'sha murakkabliklar va ziddiyatlarga to'la davrdagi faoliyatida amaldorlik pa hukmdorlikka intilishga nisbatan ma'naviy kamolotga intilish, she'riyat va ijodga intilish ustun bo'lgan deb xulosa chiqarsak xato bo'lmaydi. Ubaydiy ijodini o'rganish adabiy merosga bir yoqlama sinfiy munosabatsda bo'lishning qurboni bo'lib keldi. Bundan buyon biz Ubaydiy adabiy merosini jiddiy o'rganish uchun birinchi ya'vatda uning asarlarining matn xususiyatlariga alohida ahamiyat bermog'imiz kerak. Bizning tushunishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Ubaydiyning o'zbekcha devoni yagona va chala bo'lishi bilan birga ayrim matniy nuqsonlarga ham ega.

Lekin, nima bo'lganda ham, biz bu noyob iste'dod egasining uch tildagi asarlarini atroflicha va ixlos bilan o'rganishga, charg'ib etishga kirishmog'imiz zarur. Shu o'rinda biz Ubaydiy she'riyatidan kichik bir guldastani kitobxonlar diqqatiga havola etar ekanmiz, bu shoir she'rlarini nashrga tayyorlashda ilk tajribalardan biridir.

Abduqodir Hayitmetov,

filologiya fanlari doktori, professor.

G'azallar

Bo'ldi ul vaqtiki, Odamg'a vujude paydo,

Qildi izzat yuzidin anga sujude paydo.

Anda ne shohidu mashhudu shuhude bor edi;

Bo'ldi ul ikki bila anda shuhude paydo.

Mutribi nag'ma bila anda surude yo'k edi;

Nag'ma-u mutrib ila qildi surude paydo.

Quadrat ilki bila, yorab, sen o'zungsen ilg'on

Budi[1] yo'qlarg'a azal mulkida bude paydo.

Sham' ila o't boshida dud kilib paydo sen,

Qilmading lola-u gul o'rniga dude paydo.

Bo'lmadi hasrat va anduhu ziyondin o'zga

Dahr bozorig'a kufr ahlig'a sude paydo.

Yana Odamg'a xudo lutfi, Ubaydiy, bo'lg'och,  
Ko'rki shaytondek anga bo'ldi husude[2] paydo.  
\* \* \*

Hosili kavnu makon ko'yungda bir xasdur manga,  
Ushbu himmat ikki olam ichida basdur manga.  
Ham ko'runmas yer yuzi bir tirnoqchakim,  
Yetti ko'k ayvoni bir toki muarnasdur[3] manga.  
Gulshani husnung tamoshasin tilarmen har zamon,  
Bu gulistondin g'araz ul ikki nargasdur manga.  
Sunbulu guldin g'araz ruxsoru zulfidir aning,  
Sarv tubidin murod ul sarvi navrasdur manga.  
Ey Ubaydiy, chun libosi fakr ila xushholmen,  
Bul havaslardek qachon parvoyi atlasdur manga.  
\* \* \*

Bahor ayyomi sahro lolazor o'ldi, diyor anda,  
Nechakim ishrat asbobin tilarsiz, barcha bor anda.  
Kezar gulshanaro yeru qilermen nola gulxanda,  
Ajabtur buki, bulbul munda-u ul guluzor anda.  
Zamona garchi oyirdi meni dildor ko'yidin.  
Qo'yub kettim o'z o'rnimg'a ko'ngulni yodgor anda.  
Ko'z uchun to'tiyodur ostoning tufrog'i elga:  
Manga basdur bu davlatkim, bo'lubmen xoksor anda.  
Berurda nomai a'moliki mahsharda har kimga,  
Ubaydiy, xudoyo, kilmag'aysen sharmsor anda.  
\* \* \*

Oshiq ermastur kishi devona bo'lmasa,  
G'am dashti ichra sokini vayron bo'lmasa.  
Ne oshiq o'lg'ay ul kishikim, jonu ko'nglini -  
O'z dilbarig'a sarf etib, afsona bo'lmasa.  
Kelmas o'ziga oshiki madhush, soqiyu,  
Ohu fig'onu na'rai mastona bo'lmasa.  
Bo'ston aro ochilmag'usi g'unachdin ko'ngul,  
Gul mavsumida bodayu paymona bo'lmasa.  
G'am kulbasida naylagay erding, Ubaydiy,  
Sokiyu jomu mutribu paymona bo'lmasa.  
\* \* \*

Gulshani jon ichra bir sarvi xirromondur manga.  
Bir baloliq, ikki so'zluk ofati jondur manga.  
Istamon zohid kibi firdavsi rizvon gulshanin;  
Gulshani ko'yi aning firdavsi rizvondur manga.  
Dilbarimdin ayru bormen ishratobod elg'akim,  
Shodmonlig' evi, ey siz, baytul-ehzondur manga.  
Men ko'ngul dardig'a yig'larmen, ko'ngul ham holima;  
Men anga hayronmanu ul dog'i hayrondur manga.  
\* \* \*

Necha g'am o'ti bilan ko'ygay ko'ngul hijron aro.  
Jon dog'i hayron bo'lub bu vodiya xirmon aro.  
Novaki mijgonidin ko'nglum figor o'lmay netar;  
Naylasun bir norvone yuz tuman paykon aro.  
Husn bog'i ichra yo'qtur sen kibi gulchehraye;  
Bulbuli oshifta hole men kibi bo'ston aro.  
Suratin jonima qildimu ko'ngul lavhida naqsh,  
Tushkali aksi jamoli diydayi giryon aro.  
Ey Ubaydiy, shahsuvoring zulfi chavgoni bila,  
Dar taraf chopsa ko'ngul go'yin urar maydon aro.  
\* \* \*

Yer bo'ldi yana ul yori vafodor manga.  
Emdi, ey ahli vafo, ne qilur agyor manga.  
Netayin jannatu gulzorni, ey toza javon?  
Mensizin do'zax erur jannatu gulzor manga.  
Gar qadam ranja qilib boshima, ey sarviravon,  
Kelmasang, ahli garaz yetkurur ozor manga.  
Qilmayin mehri vafo, ayladi yuz javru jafu,  
Allah, Allah! Ne jafolar qiladur yor manga!  
Borayin mulki adam sori, Ubaydiy, emdi,  
Yersiz olamu odam aro ne bor manga.  
\* \* \*

Chorayi g'am qilg'ali ramxorayi yo'qtur menga.

Bas ajab bechoradurmen, chorayi yo'qtur menga.  
Motamimda gul kibi yirtib yaqo, o'tlar chekib,  
Holima yig'lab tururmen, chorayi yo'qtur menga.  
Ko'zumu ko'nglum tilarkim, - ko'rsam ul xurshidni?  
Garchi hargiz toqati nazzorayi yo'qtur menga.  
Telbarab, ovora bo'lmay naylay, ey farzonalar,-  
Kim ko'ngul saqlar pari ruxsorayi yo'qtur menga"  
Ul parivash der emish o'xshar Ubaydiy telbag'a,  
Bodiyi ishq ichra bir ovorayi yo'qtur menga.  
\* \* \*

Gilar bo'lurni ko'ngul yori ganguzori bila;  
Ajab saodat erur bo'lsa yor yori bila.  
Uzorini yoshurub, gulni tashladi "OI!" deb;  
Ne ol etar manga ul sarvi guluzori bila.  
Qaror ko'yida ko'nglum tutub turur, lekin -  
Qo'yardek ermas oni charx bir qarori bila.  
Zarurat o'lmasa, jono, xazin ko'ngul sendin,  
Tilarmu boshqa bo'lurni o'z ixtiyori bila.  
Fig'onki, vaslinga yetmay xazin Ubaydiyning,  
Tamomi umri firoqingda kechti zori bila.  
\* \* \*

To alifdek jon o'qi sonchilmas ermish jon aro,  
Vasl qadrin bilmas ermish hech kim hijron aro.  
Ey falak, mahrum etib ul oy jamolidin meni,  
Necha sargardon qilursen vodiya hijron aro.  
Sarvdek gar bo'lmasang, ey qaddi ra'no, jilvagar,  
Sarvqadlar bo'yig'a solmon nazar bo'ston aro.  
Qo'ymayin bir katra ichgumdur labi yodi bila -  
Davr ayoqin, soqiyo, tutsang manga davron aro.  
Ey Ubaydiy, fol ochsam fath bobig'a kelur, -  
"Far" ila "Inna fatihno" surasi Qur'on aro.  
\* \* \*

Ey yosh, ko'zum yoshi yo'lidin guzar ayla,  
Durlar sochadur yo'lunga ko'zum, nazar ayla.  
Ey gul, zaqaning olmasi naxlingg'a samardur,  
Halqa etibon zulfni, bargi samar ayla.  
Ko'nglin qaro yer aylabon ag'yorning, ey yor,  
Oni va havodorini ondin batar ayla.  
Seni deb eshikinda ko'ngul xor yuriydur;  
El qoshida lutf aylab, ani mu'tabar ayla.  
Ko'nglumni Ubaydiy kabi, ey soqiya gulrux,  
La'ling mayidin mast qilib bexabar ayla.  
\* \* \*

Sabzai xattin ko'rub, dermenki, bersam jon anga,  
Kim xatidur Xizru manzil chashmai hayvon anga.  
Ko'rmadim bir zarrai mehr ul quyoshdin, ey rafiqa,  
Munchakim ko'nglum falakdek bo'ldi sargardon anga.  
Vasli ko'nglumning nasibi bo'lmog'idin angladim,-  
Kim nasib o'lmish azaldin mehnati hijron anga.  
Chun ko'nguldin chiqsa hijron kechasi ohim o'ti,  
G'unchadek o'tluq ko'nguldur otashin paykon anga.  
Ey Ubaydiy, holatingni yig'labon yor oldida -  
Oshkor etmak ne hojat chun emas pinhon anga.  
\* \* \*

Gul sori qilmon nazar zebo jamoling borida.  
Ko'zga olmon sarvni nozik niholing borida.  
Qilmadi husn ahlig'a hargiz vafo husnu jamol,  
Qil vafo, ey bevafo, husnu jamoling borida.  
Istamon hayvon suyini, bosmon, dog'i ichmon ani,  
Dambadam jon berguchi shirin ziloling borida.  
Har sori qilsa azimat, borg'il ul dildor ila,  
Qolma zinhora, ey ko'ngul, andin majoling borida.  
Ey Ubaydiy, ul parivash vaslini qilg'il xayol,  
Qilmag'il o'zga xayol ushbu xayoling borida.  
\* \* \*

Qildi ko'nglumni ko'zum zoru giriftor sanga.  
Koshki solmag'ay erdim nazar, ey yor, sanga.  
Yana sirringni, ko'ngul, jon aro asrab mendek,

Bo'la olg'aymu ekin mahrami asror sanga.  
Munchakim qon to'kasen ko'rmak uchun diydorin,  
Ey ko'zum, bormu ekin tokati diydor sanga.  
Xo'blar ichra yana uchramish, ey xasta ko'ngul,  
Rahmsiz, vah, ne yamon sho'xi sitamkor sanga.  
Ey pari chehra, meni zor Ubaydiy yanglig'  
Kshgai devona ko'ngul zor sanga. zor sanga.  
\* \* \*

Bodadin bir yo'li o'tubturbiz.  
Boda ichmakni unutupturbiz.  
Labining hasratida jon birla  
Vah, ne xunobalar yutubturbiz.  
O'ynabon g'ayr ila vafo nardin,  
Naqshlar aytibon o'tubturbiz.  
Jong'a bor javri, mehri yo'qlardin  
Bir yo'li o'zni sovutubturbiz.  
Ey Ubaydiy, karo ko'zidi(n) yiroq,  
Hajrida go'shaye tutubturbiz.  
\* \* \*

Bo'lmisham hayronu bilmas ul buti ra'no hanuz,  
Bodiyi hayrat aro men telba sargardon hanuz.  
Jon yetibdur og'zima hajr ilgidin, ey do'stlar,  
Men o'lar holatdayu rahm aylamas jonon hanuz.  
X.anjarining loladek bag'rimda bo'lg'on holidek,  
Tinmayin suvdek ravon bo'lub oqodur qon hanuz.  
Qurutub og'zimni ul gul davrida bilmon nedin,  
Manga sunmasdur ayog'in soqiyi davron hanuz.  
Ey Ubaydiy, barchag'a bo'ldi saru somon, vale,  
Men yururmen telbalardek besaru somon hanuz.  
\* \* \*

O'rtanur hajr o'tig'a jismi figorim sensiz.  
Kuyadurmen, netay, ey lola uzorim, sensiz.  
Ravnaqi bog'u bahorim eding, ey sarvi sehi,  
Topmadi nashvu namo bog'u bahorim sensiz.  
Xar necha ko'kdin o'tub buzdi maloyik ko'nglin, -  
Ohu afg'onim ila nolai zorim sensiz.  
Tufrog'im sovrulubon chiqti kuyundek, ey sarv,  
Sarsari hajr ila gardung'a g'uborim sensiz.  
Sabr etib qilmas edim nola Ubaydiy yonglig',  
Yo'qturur, vah, netayin sabru qarorim sensiz.  
\* \* \*

Ochildi umr niholi guli nihoyatsiz,  
Vale ne sudki, g'am meva berdi g'oyatsiz.  
Ne tavr odame bo'lg'on jahonda andinkim,  
Shikoyat etmagay el bo'lmag'ay shikoyatsiz.  
Hadisu oyat ila uz nafas haqiqatdin,  
Kim andin o'lmas urub dam hadisu oyatsiz.  
Jinoyat ahlig'a ko'p ta'na urmagil znnhor.  
Yo'q ul sifat kishikim bo'lmag'ay xiyonatsiz.  
Ubaydiy, ista hidoyat xudodin sen, yo'q esa,  
Yetishsa bo'lmas aning vaslig'a hidoyatsiz.  
\* \* \*

Yor istamaki, olam aro yor topilmas.  
Topilsa dag'i mushfiku g'amxor topilmas.  
Axtarsang agar bir yaratib ikki jahonyai,  
Mendek senga bir zoru giriftor topilmas.  
Hushyor netarsen tilabon, ey ko'zi usruk,  
Mastona ko'zung davrida hushyor topilmas.  
Ko'p yor agarchi topilur senga valekin,  
Jon berguchi men kabi vafodor topilmas.  
Diydor g'animat turur,- ey telba Ubaydiy,  
Diydoridin ayrilmaki, diydor topilmas.  
\* \* \*

Sohir ko'zining mardumin inson desa bo'lmas,  
Ul kofir zror, oni musulmon desa bo'lmas.  
Jismim aro jon o'rnida jononim erur jon,  
Jon desa bo'lur muni, ani jon desa bo'lmas.  
Zulfi ne balo ozr ko'ngullarni yig'ibtur,

Jam'iyati bor asru parishon dssa bo'lmas.  
Majnundnn erur besaru somonlig'im afzun,  
Qoshimda oni beasru somon desa bo'lmas.  
Nodon dema Majnun ishini, v B"desa Ubaydiy,  
Okil kishini jahl ila nodon desa bo'lmas.

\* \* \*

Mehribonlig'din deding:- "Bir notavonim bor emish".  
Shukri lillahkim, seningdek mehribonim bor emish.  
Vasling ayyomida ham qon yig'ladim to bilgasen.  
Kim firoqingda ani chashm xunfishonim bor emish.  
Urtadi olamni oxir ohu afg'onim o'ti;  
Vah, ne o'tluq nola-u ohu fig'onim bor emish.  
Fitna solur har dam ul oshubi jonim, dahr aro;  
Ne balolig' ofati jonu jahonpm bor emish.  
Ey Ubaydiy, fitna solmoq xalq aro xo'dur anga;  
Vah, ne badjo', fitnai oxir zamonim bor emish.

\* \* \*

Xotiring g'am ilkidin men zor uchun afgor emish.  
Shukrkim, olamda sendek g'amguzorim bor emish.  
Telba ko'nglum boshida jo'lida soch ermaskim ul,  
Qushlar anda oshiyon aylarga yiqqon xor emish.  
Ishq aro garchi balolar ko'p, vale ishq ahlig'a  
Boridin oning yamonroq hajr ila ag'yor emish.  
Der edim ko'nglumdin o'zga zor shoyad bo'lmag'ay;  
Notavon ko'nglum kibi kimni ko'rdum, - zor emish.  
Yerdin qilmay gila, netsun Ubaydiykim, ani -  
Vaslidin mahrum etib, hijrong'a solg'on yor emish.

\* \* \*

Umlar aylab salomat so'zlarin o'zdin yiroq,  
Bo'lmadim hargiz salomat ahlidek so'zdin yiroq.  
Shomdek zulfungni olg'il subh yuzdin, - dedim;  
Dedikim bo'lg'on emastur kecha-kunduzdin yiroq.  
Ko'zni, bilmon, nega yumdum vasl ayyomidakim,  
Ko'z yumub ochquncha bo'ldum ul qaro ko'zdin yiroq.  
Qo'ymadi bir dam vafosiz charx, qilmay oqibat, -  
Zarra yanglig', vah, o'shal xurshiddek yuzdin yiroq.  
Ko'zlari sayyorasidin boshqa ko'rmay yuzi,  
Ey Ubaydiy, ko'rsa bo'lmas oyni yulduzdan yirok.

\* \* \*

Bir parivash ishqida devona bo'lg'on yaxshiroq,  
Ishq aro Majnun kibi afsona bo'lg'on yaxshiroq.  
Dahri dun ma'murasidin bir yo'li ko'ngul uzub,  
Chug'z yanglig' sokini vayrona bo'lg'on yaxshiroq.  
Savmaa tarkin qilib, mayxona sori boru ko'r,  
Kim harifi sog'aru paymona bo'lg'on yaxshiroq.  
Oshno qilg'on balog'a bizni aqlu xush erur.  
Emdi aqlu xushdin begona bo'lg'on yaxshiroq.  
Yo'q turur bir shodlig'kim, so'ngg'ida g'am bo'lmasa,  
Ey Ubaydiy, g'am bila hamxona bo'lg'on yaxshiroq.

\* \* \*

Qilich kofir uchun qo'lg'a ne xushdur mustadom olmoq,  
Bilingkim, borchag'a farz etmish ondin intiqom olmoq.  
Tazakkur birla ibrat olamida davlaturkim,  
Xamiyat ahlidin pandu nasihatlar davom olmoq.  
Harom olmoqni qo'yub, zuhd ahlidek halol ista,  
Halol olmoq borinda yaxshi ermastur harom olmoq.  
Qachonki badlig'idin o'zini kimki o'tkarsa,  
Nasib o'lur anga jannat mudomidin[4] dom olmoq.  
Magar ruhul-quds-fayzi asar qilsa Ubaydig'a,  
Ne chog'lig' ish durur anga jahon mulkin tamom olmoq.

\* \* \*

Ey ko'ngul, qilma tama' ul dilsitondin yaxshiliq,  
Notavon jonimg'a ul oshubi jondin yaxshiliq.  
El ichinda yaxshiliq ko'rmaymen ondin,- der edim.  
Ey ko'ngul, men ko'rmadim kim ko'rgay ondin yaxshiliq.  
Ey guli ra'no, xazar qil ohi sardimdin mudom,  
Hech gul ko'rgan emas bodi xazondin yaxshiliq.  
Mehribonliq ko'rsatib, ko'nglumni oldi oqibat,

Shukri lillah, ko'rdum ul nomehribondin yaxshiliq.  
Ey Ubaydiy, yaxshiliq, ko'z tutmayin, ne boq, men,  
Ne umid etgay kishi mendek yamondin yaxshiliq.  
\* \* \*

Necha hamdamliq qilib bazmimda o'lturg'ay firoq,  
Necha g'am durdi bila jomimni to'ldurg'ay firoq.  
So'ngakim gar toshdin o'lsakim, g'ubor aylab ani,  
Har sari g'am girdibodi birla to'zdurg'ay firoq.  
Oyirib ko'nglumni andin yuz parishonliq bila,  
Bu xayoli borki, g'am xaylig'a tobshurg'ay firoq.  
Ey ko'ngul, ul qoshi "yo"din ayru noshod aylabon,  
Notavon jonimg'a necha g'am o'qin urg'ay firoq.  
Kim qilib mahzun Ubaydiy ko'nglidin sabru qaror,  
Vah necha javru jafoni haddin oshurg'ay firoq.  
\* \* \*

Sanga ne bo'lg'ay aning ollida vafo qilsang,  
Vafo yuzudin anga meni oshno qilsang.  
Iki jahon g'amidin bir yo'li qutulsang, agar -  
Ko'ngulni xalqai zulfungga muftalo qilsang.  
Visoli-la quvonur g'ayr, ey falak, netti -  
Firoq dudi bila yuzini qaro qilsang.  
Raqib ko'zuma, tong yo'q, hasaddin agar -  
Vafo qilib anga mardum, manga jafu qilsang.  
Zamona multafitin naylasun Ubaydiy, agar -  
Karam yuzidin o'zungga ani gado qilsang.  
\* \* \*

Base, farog'ati bor, do'stlar, gadolig'ning;  
Balo-u mehnati ko'p asru podsholig'ning.  
Ato-u lutfung agar elga bo'lmas, yorab,  
Yo'q anda foidaki zuhdu porsolig'ning.  
Haqiqatin kishining bilmay oshno bo'lmang,  
Ki oqibat, zarari bor ul oshnolig'ning.  
Ne bo'ldi qilsang o'yin tark bevafolig'ni:  
Yamondur oxiri sho'xi bevafolig'ning.  
Fig'onki, ishq meni oqibat Ubaydiydek  
Asiru sheftasya qildi bir balolig'ning.  
\* \* \*

Jon fido qilmay sanga naylayki, jonimsen mening.  
Jon bila ko'nglumdin ortuq dilsitonimsen mening.  
Xoh qil mehru vafo, xohi vafo-u javr ham;  
Mehr yo'q mahvashlar ichra mehribonimsan mening.  
Ey hayotim sanga, jismim evida jon naqdini -  
Sarf qilsam, ayb emaski, mehmonimsan mening.  
Hamdamimdur figon aylarda, ey jon bulbuli,  
Nola aylab, oh urar-u hamzabonimsen mening.  
Jonfizo la'linga jon bersam Ubaydiydek hanuz  
Yovar etmas xo'yi bebok, badgumonimsen mening.  
\* \* \*

Meni, ey sho'x, o'rtadi makr o'tig'a oling[5] sening;  
Ro'zgorimni qaro qildi xati xoling sening.  
Ne edi holim ko'rub qatlinga ehmol aylamak;  
Ey ko'zi qotil, meni o'lturdi ehmoling sening.  
Bosh yalang ko'rsang meni, ayb etma, ey laylivashim,  
Bormen ushshoq aro Majnundek abdolim sening.  
Bo'lmayin pomol o'lub, bo'lmas ayog'ing tufrog'i;  
Koshki bo'lg'ay edim, ey sarv, pomoling sening.  
Ko'rdum ahvolingdin it ahvolini ko'p yaxshiroq;  
Ey Ubaydiy, ishq aro bu bo'lsa ahvoling sening"  
\* \* \*

To husn bog'i ichra ochildi gulung sening,  
Bo'ldum fig'onu nola qilur bulbulung sening.  
Bo'ldi tirikligim sabab bilaring meni;  
Hayvon suyidin o'zga emastur mulung[6] sening.  
Boshig'a evurur bori olamni charxdek, -  
Yetmay boshingda evrulubon kokulung sening.  
Ko'rsat sochingni, yo'qsa parishon bo'lur ko'ngul;  
Jam'iyatig'a bois erur sunbulung sening.  
Xohi inoyat ayla Ubaydig'a, xohi zulm;

Ey podshohi husn, bo'lubtur qulung sening.

\* \* \*

Vaslidin navmed etib ko'nglumni mahjur aylading.  
Meni rasvolig' bila olamg'a mashhur aylading.  
Endurub bazmi visolingga meni mahjurni,  
Aysh jomidin hazin ko'nglumni masrur aylading.  
Qilmasam andishai hijron, meni ayb etmakim,  
Yetkurubon davlati vaslingg'a ma'zur aylading.  
Mehmonlig' rasmi birla kelib, ey sultoni husn,  
Hajr buzg'on baytul ahzonimni ma'mur aylading.  
Ey Ubaydiy, o'zga sori qilmading hargiz nazar,  
To o'zungni nozir aylab, oni manzur aylading.

\* \* \*

Ko'ngulki, charxi falakka yetar fig'oni aning;  
Fig'oni birla chiqarg'a yetishti joni aning.  
Gul ani birla oni da'vi aylagach, o'tdek,  
Ham ani o'rtadi, gulshan ichinda oni aning.  
Qil uchi inchka belidin, - dedim nishon topilur:  
Topilmadi, - nechakim istadim nishoni aning.  
Chiqib munavvar etar mehr barqidin har tun, -  
Qarong'u ko'z evini yori mehriboni aning.  
Ketor, sog'inma Ubaydiyni ostoningdin, -  
G'ubor bo'lsa dog'i jismi notavoni aning.

\* \* \*

Senga ne bo'lg'ay aning ollida vafo qilsang;  
Vafo yuzudin anga meni oshno qilsang.  
Ikki jahon g'amidin bir yo'li qutulsang magar,  
Ko'ngulni halqayi zulfungg'a mubtalo qilsang.  
Visolila quvonar g'ayr, ey falak netti, -  
Firoq dudi bila yuzini qaro qilsang.  
Raqib ko'zig'a, tong yo'q, hasaddin o'lsam, agar, -  
Vafo qilib anga, yaar dam manga jafo qilsang.  
Zamona mas'iyatin[7] naylasun Ubaydiy, agar -  
Karam yuzidin o'zungga oni gado qilsang.

\* \* \*

Oshiq o'lg'on kishilarning nazari pok kerak;  
Oni bilmakka dog'i fahm ila idrok kerak.  
Ishqdin g'uncha kibi ko'ngli to'la qon kerak;  
Yuzi ham soriq guldek yaqosi chok kerak.  
Ishq jon bermaku bosh o'ynamoqu kuymakdur;  
Oshiq ul ishlarida chobuku cholok kerak.  
Ishq oshiftasi oshiq kishining ohicha -  
So'zlari dardliku ko'zlari namnok kerak.  
So'z Ubaydig'a dema o'zga habibidikkim,  
Anga ahbob aro Xojai Lo'lok[8] kerak.

\* \* \*

Vaslingga yetkurmasang, jono, meni ma'dum qil;  
Yo kelib hajringda ne holim borin ma'lum qil.  
Xidmatyadin qilma, yorab, bandani bir dam yiroq;  
Meni anga xodimu oni manga maxdum qil.  
Hech kimni oning oti birla mavsum etmading;  
Lutf etib, yorab, meni ul ism ila mavsum qil.  
Mahrami xos aylabon vasli harimig'a meni,  
Kimki nomahram erur, doridin[9] mahrum qil.  
Bildur, ey, gar desang ul oyg'a ko'ngul ahvolini,  
Sharhi birla, ey Ubaydiy, nomada marqum qil.

\* \* \*

Lutfu ehsonimni kam jonimdin, ey jon, qilmag'il;  
Mendin o'zga hech kimga lutfu ehson qilmag'il.  
Saltanat axtarlarin ro'yin[10] kibi jam' aylading;  
Ham nabotul-g'ashdek, yorab, parishon qilmag'il.  
Bo'ldilar bu jam' bir-birning vasli birla shod;  
Ushbularni mubtaloyi dardi hijron qilmag'il.  
Soqlog'il bu jam'ni turluk balodin har nafas;  
Muztarib ahvol etib, mahzunu hayron qilmag'il.  
Ey Ubaydiy, faqr mulkin tengrikim berdi sanga, -  
Har zamon andeshai mulki Sulaymon ilmag'il.

\* \* \*

Ey ko'ngul, jomi muhabbat yor ila no'sh aylagil;  
Andin o'zga har nekim bordur - faromush aylagil.  
Necha yolg'uz may icharsen, ey nigori no'shlab,  
Oshiqi bechora birla bir qadah no'sh aylagil.  
Olami hushyordin ko'nglumiz bo'ldi malul;  
Bir so'nub la'ling mayidin bizni madhush aylagil.  
Dostonimni yozib ilkingda, ey laylivashim,  
O'qu, man Majnun kibi bir-bir oni go'sh aylagil.  
Ey Ubaydiy chun masal budurki, so'zdin so'z tug'ar;  
So'z eshitmak gar desang, bir lahza xomush aylagil!"

\* \* \*

Davo firoqinga, jono, visol emish, bildim;  
Vale visolninga yetmak mahol emish bildim.  
Malol jong'a ko'nguldin, ko'ngulga jondin ham;  
Manga dog'i bu ikovdin malol emish, bildim.  
Kamand zulfini aylab, ko'ngulni sayd etgan -  
Ko'zi qaro, o'zi turfa g'izol emish, bildim.  
Bafo jafu (g'a) evaz ko'ngluma qilib dedikim,  
Jafu shikastag'a qilmoq vubol emish, bildim.  
Hamisha ishq tariqin so'runq Ubaydiydin,  
Ki ishq fannida sohibkamol emish bildim.

\* \* \*

Shukrkim, oxir o'zumni itiga yor ayladim;  
Ko'rsatib mehru vafo anga, vafodor ayladim.  
Sir anga fosh etmas erdim, - bilsam izhor ayladim  
Men anga asrar debon sirrimni izhor ayladim.  
Zulfini ko'rgach, hazin ko'nglumni topshurdum anga.  
Kuch bila bir nomurodni gar giriftor ayladim.  
Tirnog'imni tez etib shirin labining ishqida,  
Ohkim, Farhoddek ko'ksumni afgor ayladim.  
Ey Ubaydiy, ul pari paykarg'a o'zni zor etib,  
O'zgalardin bir yo'li ko'nglumni bezor ayladim.

\* \* \*

Yordin bir lahza ayrilmoq xayolin qilmadim;  
Shukrkim, andin zamone o'lmayin ayrilmadim.  
G'ayrg'a qotilmog'im bordur manga o'lumchakim,  
Ko'rmadim yuzun aning, borib anga qotilmadim.  
Bu ne may erdiki, soqiy lutf etib tuttung manga,  
Umlardurkim, xumoridin aning oyilmadim.  
G'unchadek ogzi bila nargiz ko'zi hajrida, oh,  
Kulmadim ham gul kibi, ham g'unchadek ochilmadim.  
Ey Ubaydiy, vasl shomi ko'zgudek diydoridin -  
Meni mahrum ayladi mohim, gunohim bilmadim.

\* \* \*

Ko'rar ko'zimsan, ey jonu jahonim;  
Sevar yorim, azizim mehribonim.  
Tarahhum qilki, bo'ldi xoki rohing  
Tani farsuda, jismi notavonim.  
Ko'ngul uyin buzar seli sirishkim,  
Ham o'tluq nolayu ohu fig'onim.  
Sening ishqingda Majnun qissasidek,  
El ichra topti shuhrat dostonim.  
Ubaydiyga topilmas olam ichra  
Seningdek mushfiq, ey oromi jonim.

\* \* \*

Sevarimsen sen mening, ey dilsitonim, tuqonim:  
Joni yo'q jism ichra jon o'rnig'a jonim, tuqonim.  
Ko'rsat ul qomatnikim, tortay navo bulbul kibi,  
Vasl gulzorinda, ey sarvi raronim, tuqonim.  
Mehribonlig' ko'rsatib, doim manga tuqqonlig' et:  
Mehr mulki ichra sensen mehribonim, tuqonim.  
Topmadim g'urbanda bir mahramki, rozimni desam:  
Koydasen, ey mahrami rozi nihonim, tuqonim.  
Talx kom etti Ubaydiyini firoqing bodasi;  
Chuchut oning og'znni. shirin zabonim, tuqonim.

\* \* \*

Chu mehring bor doim manga, derman: "Yor bo'lg'aysan!"  
Manga chun ko'z solursen, mehr, doim bor bo'lg'aysen.

Meni zor etting, ey ko'ngul, dame ul oy jamolig'a;  
Ilohi, sen dog'i mendek birovg'a zor bo'lg'aysen.  
Qarog'im pardasin, ey yor ayog'i, poymol ayla, -  
Gahi qo'rqay tikib, gulbargi afgor bo'lg'aysen.  
To'kub qonimni, bir dam yetmay ichding, vah, ajabdurkim  
Dame o'tmay munungdek qotili xunxor bo'lg'aysan.  
Agar miskin Ubaydiy bar yesa guli visolingdin,  
Hamisha baxtu davlat birla barxurdor bo'lg'aysan.  
\* \* \*

Qaro ko'zum, ne balo bevafo'lig' aylarsen;  
Ko'zumdin o't chiqorib, ko'z qarolig' aylarsen.  
O'zung degondek etibsen ulusni, ey badxo',  
Ajab farog'at ila podsholig' aylarsen.  
Mudom savmaada may icharsen, ey zohid.  
Hamisha el qoshida porsolig' aylarsen.  
Meni shikastag'akim ayla oshnolig'ni.  
Raqiblarga ne ko'p oshnolig' aylarsen.  
Yuzungni goh Ubaydiyga, goh ko'zguna -  
Ayon qilib ne balo xudnamolig' aylarsen.  
\* \* \*

Ko'nglum g'amidin necha qilay ohu fig'on men,  
Devona ko'ngul ilgida darmondai jon men.  
Ishqingni nechuk yoshurayin ahli jahondin,  
Kim shuhrai shahr o'ldumu rasvoi jahon men.  
Mendin ne qilur el tilabon pomu nishonim,  
Majnun kabi olam aro benomu nishon men.  
Yuzlangali ko'ying aro ko'nglumga amonlig'  
Yuz shukrki har tafriqavu g'amdin amonmen.  
Tavrimni dag'i ne so'rasin, zor Ubaydiy,  
Yaxshi bila yaxshiyu, yomon bila yomon men.  
\* \* \*

Furqat tuni ayyomi visolingni tilarmen,  
Hijron kechasi sham'i jamolingni tilarmen.  
Hayvon suyini Xizr ko'zum qoshida qo'ysa,  
Naylay ani, ko'zumga zulolingni tilarmen.  
Gar jonu ko'ngul qilsa talab xolu xatingni,  
Men jodu ko'zung birla hilolingni tilarmen.  
To'bi qadini ko'rmaka firdavs aro kirsam,  
To'bidin o'tub toza niholingni tilarmen.  
Zulfunng'a Ubaydiy kabi ko'nglumni beribmen  
Jonim qushidek donai xolingni tilarmen.  
\* \* \*

Jovidon la'ling o'lukni tirguzur, ey dilsiton;  
Vaslingga yetsam topar erdim hayoti jovidon.  
Orazu zulfu qading qayg'usidin hijron aro,  
Jismim erur notavon, ko'nglum hazin, ozurda jon.  
Jilvagar bog' ichra asru gul uzorim bo'lmasa,  
Gul kabi yirtib yaqo, bulbuldek aylarmen fig'on.  
Aylading g'am tig'i birla, ey jigar pargolasi,  
Loladek bag'rimni choku g'unchadek ko'nglumni qon.  
Ey Ubaydiy, bahravar bo'lsun nishotingdin ulus,  
Toki bordur dahr aro bu charxi xazrolin nishon.  
\* \* \*

Ishqingda sening g'ulgula olamg'a solumen,  
Ishqing sipohi birla bu olamni olurmen.  
To tushtum iroq hasrat ila qoshu qadingdin,  
Hajringda gah ikki bukulub, gah uzolurmen.  
Yuz za'f ila itingga yana ergashib, ey yor.  
Holi boramen, tangri bilur, qayda qolurmen.  
Boshim oqaribtur, menga rahm aylaki boshdin,  
Ishqingni ayon etmasa, eldin uyalurmen.  
Qo'l qo'yima so'ngak bo'lgan etim uzra, Ubaydiy;  
Etinga ilik tegsa, so'ngakdek ushalurmen.  
\* \* \*

Ey falak, tushtum ayru jonimdin:  
Kechalar mohi mehribonimdin.  
Der edim solma (g'ay) meni davron  
Oyirib umri jovidonimdin.

Yetmadim bot visolig'a oxir,  
Kechmayin joni notavonimdin.  
Meni bir dam oyirma, ey gardun,  
Fitnai oxirul - zamonimdin.  
Ey Ubaydiy, ne ranj ko'rmaymen  
Oyru ul sho'xi dilsitonimdin.

\* \* \*

Ko'nglum bila dildorni men yod etadurmen,  
Xotirni dog'i yodi bila shod etadurmen.  
Bedod etadur jonima dildor, netaykim,  
Demas: - "Nega bu xastag'a bedod etadurmen".  
Faryodki, faryodima yetmas, netay, ul sho'x,  
Har nechaki hijronida faryod etadurmen.  
Shod aylab aning yodi bila xasta ko'ngulni,  
O'zumni g'amu g'ussadin ozod etadurmen.  
Zuhdu varaim daftarin, ey banda Ubaydiy,  
Bir-bir qilibon, ishqida barbod etadurmen.  
Bir lahza ko'nglum o'lmadi beg'am zamonadin;  
To'ydi zamona mendinu men ham zamonadin.

\* \* \*

Yetmay ko'ngulga, ey hamdamim, yetar -  
Yuz ming gamu alam anga har dam zamonadin.  
Jam'iyatiki bor edi ko'nglum diyorida,  
Ul dog'i bo'ldi bir yo'li darham zamonadin.  
Ko'nglum guli bu gulshan aro so'rg'ali dame,  
Umrum niholi bo'lmadi xurram zamonadin.  
Marham jarohatingg'a, Ubaydiy, tilarni qo'y,  
Yetmas jarohat ahlig'a marham zamonadin.

\* \* \*

To oshiq o'zumni sanga, ey yor, etibmen,  
Ishqing yo'lida ishq kamolig'a yetibmen.  
Ey g'ayr, necha javr qilursen manga har dam;  
Ushshoq aro bilmon sanga men, yor, netibmen.  
Dersenki, oning husni pari husnig'a bormu?  
Ko'rmaymen oning husnini, ammo eshitibmen.  
G'uncha kibi paykonliq o'qi ko'nglumga yetgach,  
Paykonin aning oh o'qi birla tarotibmen.  
Ko'y boshidin boshim olib javriga turmay,  
Sargashta Ubaydiy kibi, ey do'st, ketibmen.  
Qochibki shah bacha ketti Hiri diyoringdin,  
Xalos bo'ldi ulus shianing shiorindin.

\* \* \*

Turarg'a chora topa olmayin, qochib ketti;  
Ketarga mayli yo'ts erdi o'z ixtiyorindin.  
Ne ish umr ila, ne ro'zg'or ila bo'ldi;  
To'yubtur erdi yamon ro'zu ro'zgorindin.  
Solib evini, qochib bordi tulkudek, oh,  
Tavahhum aylabon ul sherning shikorindin.  
Ishi bo'lub keladur yaxshiroq Ubaydiyning;  
Yiliki, yaxshi kelur, bilgurur bahorindin[11].

\* \* \*

Guldek yuzung yondoshti guli arg'uvon bilan;  
Gul kibi chandin ichim to'ldi qon bilan.  
"La'limg'a jonu zulfuma ko'nglungni ber",- desa,  
Ko'nglum bilan berurmen oni, muni jon bilan.  
Iti bilan taloshur ermish g'ayr, hayfkim, -  
Yaxshining ishi tushmasun aslo yamon bilan.  
Bir guluzor ko'yida bordur ishim dey;  
Yo'qtur ishim jahonda gulu guliston bilan.  
Nom-nishon el ichinda Ubaydiydin istamang,  
Kim yo'qturur aning ishi nomu nishon bilan.

\* \* \*

G'am yeli osibidin sarvi qading xam bo'lmasun.  
Sarv yanglig' boshing uzun bo'lsunu kam bo'lmasun.  
Davlati vaslingdin o'lsun xotirim har lahza shoda  
Furqating qayg'usidin ko'nglum aro g'am bo'lmasun.  
"Har ne qilsang ixtiyoring ber!" "B" demassenkim manga;  
Bo'lmasa mehru vafo, javru sitam ham bo'lmasun.

Gar bo'lursen hamdam, ey Iso nafas, men xastag'a,  
Sendin o'zga munisu g'amxoru hamdam bo'lmasun.  
Ey Ubaydiy, ul parivash zulfining savdosidin  
Men kibi oshifga-u rasvoyi olam bo'lmasun.  
\* \* \*

Subhi vaslingdur meni har kecha bedor aylagan.  
Hajr shomidin xalos aylab, sanga yor aylagan.  
Sen birovga mulk bersang, kkm bo'lur mone' sanga  
Sen aziz etgan kishini kim emish xor aylagan?  
Boru yo'qumdin sanga bo'lg'ay, ey yazdoni pok.  
Borini yo'q aylagan sen, yo'qni ham bor aylagan.  
Gulshani husn ichra, ey sarvi sihi, gullar ochib,  
Sarv bo'yluqlar aro sensen meni zor aylagan.  
Novaki mijgon birla xanjari xunrezidur, -  
Ey Ubaydiy, notavon jismimni afgor aylagan.  
\* \* \*

Eshitib raqam ko'yi sadosin,  
Tilarmen ul chaman obu havosin.  
Baloyi hajrida bo'ldum giriftor;  
Xalos etmas balodin muhtalosin.  
O'ziga yor etib begonalarni,  
Qilur begona o'zdin oshnosin.  
O'zumdin kettimu bordim, eshittim, -  
Takallum vaqtida nozuk adosin.  
Ubaydiy motamn dog'ida kuydi,  
Hanuz olmay durur dogi qarosin.  
\* \* \*

Bahor kelmayin guluzor kelgaymu?  
Chamanda gul bila onsiz bahor kelgaymu?  
Yetibmen o'lgali ul g'amguzor farqidin;  
G'amini so'rg'ali ul g'amguzor kelgaymu?  
Bu sori surmasa yeldek samandin ul chobuk,  
Ko'zumga rahguzaridin g'ubor kelgaymu?  
Yo'lida qon yosh ila lolalar sochibturmen;  
Ko'ra-ko'ray oni, qoshimg'a yor kelgaymu?  
Qaror topsa ko'ngul yor ko'yida bir dam,  
Ubaydiyo, yana ul beqaror kelgaymu?  
\* \* \*

Sham' erur parvonaning holig'a giryon har kecha.  
Yig'laram oni so'rub men ham farovon har kecha.  
Ahdu paymonni tanimas tongg'a budur turfakim,  
Jonu ko'nglum birla aylar ahdu paymon har kecha.  
Ko'rgali husn avji uzra mohi tobonim aning,  
Uyalib yuz yoshurur xurshedi tobon har kecha.  
Anbar afshon zulfining savdosidin Majnun bo'lub,  
So'z o'z-o'zumga ayturmen parishon har kecha.  
Tortamen ummed ila har kun firoqi dardini,  
Vaslidan qilg'aymu deb dardimg'a darmon har kecha  
Aylaram bkr gul g'amidin notavon bulbul kabi,  
Tinmayin har lahza tong otquncha afg'on har kecha.  
Holima rahm aylamay ko'nglim qushin parvonadek,  
Ey Ubaydiy, o'rtar ul sham'i shabnston har kecha.  
\* \* \*

Ayb emas mendin agar aylasang, ey yor, gila[12];  
Sendin o'zga kishiga aylasam izhor gila.  
Zohir etmon gila sendin kishiga, - o'lsam agar  
Xotirimda gila sendin yo'q emas, bor gila.  
Gila sen aylasang, bok emastur mendin -  
O'zgalarga nechakim aylasa ag'yor gila.  
Goh-gohi gila qilmoq xush erur yorindin;  
Yaxshi yo'q aylamak el qoshida bisyor gila.  
Ko'z uchi birla nazar holinga qilmoq tilasang,  
Ey Ubaydiy, qoshida aylama bisyor gila.  
\* \* \*

Necha ul oy jonimg'a javru bedod aylagay,  
O'zgalarni shod aylab, bizni noshod aylagay.  
Ko'rsat, ey ko'nglum, borib o'zingni ul dilbarg'akim.,  
Shoyad ul soat seni ko'rgach, meni yod aylagay.

Ohkim g'am selidin vayron erur ko'nglum uyi,  
Emdi ul vayronaniki bo'lg'ay obod aylagay.  
Ishq ish andoq qilay davringda, ey layli vashim,  
Ne oni Majnun qila olg'ay, ne Farhod aylagay.  
Ey Ubaydiy, yo'qtur andoq dilbari olam aro,  
Notavon ko'nglumni g'am qaydidin ozod aylagay.  
\* \* \*

Jon chekib vaslig'a, ey jon, yetgay erdim koshki;  
Bir nafas shirin so'zi eshitgay erdim koshki.  
Istabon yetting visoli davlatiga, ey ko'ngul;  
Istay-istay oni men ham, ketgay erdim koshki.  
Novaking paykoni ko'nglumdin o'tmasdin burun,  
Shu'lalig' ohim bila eritgay erdim koshki.  
MoneCbim ag'yor emish, ey do'stlar, bor itlari;  
Barchasin o'zuma yor etgay erdim koshki.  
Ey Ubaydiy, notavon ko'nglum qushining saydini,  
Yorning fitrokiga[13] berkitgay erdim koshki.  
Qit'alar

Do'stlar, ixtiyor gulshanda  
Ayshu ishrat bila nishot qiling.  
Chunki shart o'ldi ixtiyot etmak,  
Sharti borincha ixtiyor qiling.  
\* \* \*

Dushmaning har necha qilsa zorlig',  
Rahm qilmish bo'lma oning holig'a,  
Qolu qili birla kul aylar seni,  
Bo'lmag'il sen kul qilu qolig'a.  
Tishladi oxir nadomat bormog'in,  
Kim inondi ersa oning olig'a.  
\* \* \*

Nasihati gar eshitsang nosihingdin,  
Yovumasdur senga hargiz nadomat.  
Vale pand olmasang, yuzlangusidur  
Sanga har soridin yuz ming malomat.  
Kuyarsen ham nadomat o'ti ichra  
Nadomat ahli yanglig' to'qiyomat.  
Salomat ahlidek olib nasihat,  
Salomat bo'l, salomat bo'l, salomat.  
Nasihati ganjini o'z lutfi birla  
Ubaydiyga xudo qildi karomat.  
\* \* \*

Do'sgning uzrini qabul etmak  
Do'stluqning ulug' nishoni erur.  
Kimki qilmas qabul uzri aning,  
Bilkim, ul do'stning yamoni erur.  
\* \* \*

Gar urush tushsa iki hamdam aro,  
Bot aning tadbirini etmak kerak.  
Biridin ayb o'lsa zohir, ul biri -  
Uzr aytib, aybini yopmak kerak.  
\* \* \*

O'zungdin yaxshiroq gar bo'lsa yoring,  
Bo'lursen olam ichra podsho sen.  
Agar bo'lsa yamon yoringkim, o'lg'ung -  
Gadolardek yamon yuzluk, gado sen.  
\* \* \*

O'q kibi tuz bo'lsa har kim, solur o'zing ilgari;  
Yo kibi kim egri bo'lsa, o'zin solur keyin.  
O'qni ko'rkim, tuzlukdin ilgari borur mudom.  
Yoni boqkim, egrilikdin muttasil qolur keyin.  
Rizo ato va anosin har o'g'ulkim etar,  
Xudo rizo bo'lub ondin ham aylar oni qalil.  
Olib nasihatini tutsa izzatda alarni,  
Jahonda izzati ortib, bo'lur azizu jalil.  
Ug'ilkim, ondin alar bo'lmadi rizo, bilkim,  
Hamisha oqadurur (?) xalq ichinda xoru zalil.  
Dalilikim kimki tilasa bu jong'a, bor durur  
Xudo kalomiyu Hazrat hadisi anga dalil.

Tuyuqlar  
So'g'd ichinda o'lturubtur yobular,  
Yobularning mingan oti yobular.  
Yobularning ilgidin el tinmadi,  
Yobular tursun bu yerda yo bular.  
\* \* \*

Sayr etarda gulzorim bog'ini,  
Bog'lamas gulgun qaboyi bog'ini.  
Buzdilar barcha ulusni bog'ilar,  
Tangri yo'q yotkay, ilohi, bog'ini.  
\* \* \*

Yorama ul oy marham yoqmadi,  
Ohkim, anga ne o'tlar yoqmadi.  
O'zgalarga yoqti ul tavi aning,  
Kim aning ul tavi manga yoqmadi.  
\* \* \*

Ul pari majnun ko'ngul jononidur,  
Ko'ngul o'zidur aning, jon onidur,  
Manga muncha lutfu qahring yor egach,  
Jonima javr etmaking, jono, nedur?  
\* \* \*

Ey yigitlar, yaxshi-yaxshi ot oling.  
Yaxshi otlar birla yaxshi ot oling.  
Yaxshi otmoqliq hunardur o'qni ham,  
El ko'rincha o'qni yaxshi otoling.

Ruboiylar  
Har kimki tuz etsa niyatin, rahmat anga.  
Haq niyatig'a ko'ra berur davlat anga.  
Har kishini tuzluk aylamasa niyatini,  
Xosiyatin ul nav' berur niyat anga.  
\* \* \*

Qayg'u alamidin kecha yo'q uyqu manga;  
Olamni qarong'u ayladi qayg'u manga.  
Men mundoq o'lub, raqiblar shod o'lub,  
Ortuqsi balo emasmudurur ushbu manga.  
\* \* \*

Ko'rguz manga ul sho'x vafosin, yorab,  
Ko'rguzma aning manga javosin, yorab.  
Yorab, ne duo qilursen o'z lutfung ila  
Bu qulning ijobat et duosin, yorab.  
\* \* \*

Zinhor adab o'rganing, ey ahli talab,  
Kim bordur adab guli saodatqa sabab.  
Shaytonki, adabsiz erdi, qoldi mahrum,  
Odamni ko'rung, - ne yerga yetkurdi adab.  
\* \* \*

Ey do'st, dame bo'lmadi g'amdin qutulub,  
Mazlum kibi zulmu sitamdin qutulub,  
Faryodu fig'onu ohkim, bo'lmas emish, -  
Ulmay sitamu g'amu alamdin qutulub.  
\* \* \*

Orif kishilar elga qotilmaydurlar,  
Tengri deganidin o'zga qilmaydurlar.  
Nodonlar alarni ko'zga ilmaydurlar,  
Hech kimsa alar uzrini bilmaydurlar.  
\* \* \*

Majnun ishidin ul kishikim ogahdur,  
Ushshoq arosinda Ubaydullahdur,  
Payvasta junun ahli erur hamroh anga,  
Ul rahbar erur alarga-u ham shahdur.  
\* \* \*

Bulbulg'a dedimki, gul yana so'lg'usidur,  
Ko'nglung g'amu anduh bila to'lg'usidur.  
Bulbul dedi: - "Ey do'st,- manga nola qilib,-  
Taqdiri xudoy ne bo'lsa, - ul bo'lg'usidur".  
\* \* \*

Ey yor, ko'ngul ishini buzub bo'lmaydur,  
Ag'yor jafosig'a to'zub bo'lmaydur.

Har necha uzay ko'nglumni dermen sendin,  
Sendek kishidin ko'ngul uzub bo'lmaydur.  
\* \* \*

Gar yetsa jafo, demaki jonondindur,  
Ham tushsang iroq, demaki hijrondindur.  
Haqdin ko'r ani-yu o'zgalardin ko'rsa,  
Har voqeakim voqe' o'lur - ondindur.  
\* \* \*

Ahbob kelib, qotimda o'lturmadilar;  
Holimgi bilib, yorga bildurmadilar.  
So'rg'ali ekin, - dedim,- firoqinda meni,  
So'rmoq ne bo'lur, qoshimda ham turmadilar.  
\* \* \*

O'tub boradur shiddat ila umr, ey yor,  
Ranju alamu mehnat ila umr, ey yor.  
Afsus, afsus, ko'z yumub ochquncha  
O'tti-ketti g'aflat ila umr, ey yor.  
\* \* \*

Dunyoliginga ishonmakim, ketgusidur"  
Davlat dog'i har sori mafar etgusidur.  
Mag'rur qoy elki bo'lsa dunyolig'ina,  
Oxir hamul - o'q boshlarig'a yetgusidur.  
\* \* \*

Sabr etsa kishi, murodig'a yetgusidir,  
O'zini sabur ahlidin etgusidur.  
Sabr etmakidin anga etib xurramliq,  
G'am xayli aning xotiridin ketgusidur.  
\* \* \*

G'ayrat yuzidin kimki qilich ursa mudom,  
Olg'usidur mulk arusidin kom.  
Yor etsa agar adolat atmakni anga,  
Shak yo'qkim, olur adl ila olamni tom.  
Hikmat

Ayo do'stlar, jondin kechib, ishq erkin tuttum mano.  
Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano.  
Uch yuz oltmish daryo o'ta, yurmay kishi sud aylamas,  
To'rt yuz qirq to'rt tog'din oshib, borisidin o'ttum mano.  
Vosil meni vaslig'a ul qildi, murodim vasl edi,  
Yuz ming shukr ham dam anga, maksudima yettum mano.  
Chun nosivallah ko'yida istab meni topmas kishi,  
Bas, o'zga yerda istangiz, ul ko'ydin ketgum mano.  
Solik topa olmas nishon mendin talab vodisida;  
Ey Qul Ubaydiy, jon kibi istay ani, yettum mano.  
Masnaviylar

Qoyinini davlati yanga erur, yor-yor,  
Izzatiyu hurmati yanga erur, yor-yor.  
Qoyinini yangasin olg'usidur, yor-yor:  
Oy yuzunga ko'zlarin solg'usidur, yor-yor.  
Ursa safoyi aning, shaydo bo'lur, yor-yor,  
G'oyati yo'q mehr anga paydo bo'lur, yor-yor.  
Bir-biriga mehribon bo'lg'usidur, yor-yor.  
Bir-biri mehri bilan to'lg'usidur, yor-yor.  
Yanga munungdek zarif bo'lmas emish, yor-yor.  
Xulqiyu husni latif bo'lmas emish, yor-yor.  
Toyinini, yanganing qadrini bil, yor-yor:  
Bilib an.ing qadrini, shukrini qil, yor-yor.  
Nuqtasiga bu so'zning yetmak kerak, yor-yor.  
Izzatini yaxshiroq etmak kerak, yor-yor.  
\* \* \*

Sarv qadlar sarvari gulchehradur, yor-yor,  
Dilrabolar dilbari gulchehradur, yor-yor.  
Gulchehralar birla bog' gulshan erur, yor-yor.  
Gulshan aro siz mudom gulxan erur, yor-yor.  
Gulchehralar isidin to'ldi jahon, yor-yor,  
Boshdin-oyoq muattar bo'ldi jahon, yor-yor.  
Gulchehralar qomati to'bi erur, yor-yor.  
Jannat aro tubining xo'bi erur, yor-yor.  
Sarvi saxiydek bo'yi nozik emish, yor-yor.

This is not registered version of TotalDocConverter

Bo'yqaromning yor-yor.  
Mehrki guldin ayon bo'lg'usidur, yor-yor.  
Bulbulu gul mehribon bo'lg'usidur, yor-yor.  
Bir-birining qadrini bilsa kerak, yor-yor.  
Aylagusi shukrini qilsa kerak, yor-yor.

В† Bud - borliq, mavjudlik, vujud.

В† Husud - hasadgo'y, hasad qiluvchi.

В† Mukarnas - sernaqsh, ganjkor; naqshli bino.

В† Mudom - may, sharob.

В† Ol - hiyla, aldash.

В† Mul - may, sharob.

В† Mas'iyat - balandlik, buyuklik.

В† Lo'lok - Ubaydiyning do'stlari va yaqin hamsuhbatlaridan birining nom - A. H.

В† Dor - uy, joy.

В† Ro'yin - qotishma, qo'rg'oshin.

В† Ushbu g'azal shayboniylar Xuroson poytaxti Hirotga yaqinlashgach, Husayn Boyqaro o'rniga podshoh bo'lgan o'g'illari - Badiuzzamon va Muzaffar Mirzoning shaharni tashlab qochib ketishlari munosabati bilan yozilgan.- A. H.

В† Gila - o'pkalanish, gina qilish.

В† Fitrok - qanjirg'a; egarning ikki yonidagi yuk bog'lash uchun ishlatiladigan tasma.